

BIRINCHI O‘ZBEK HUQUQSHUNOS AYOLI

Shodmonova Munisa Erkinjon qizi
Toshkent Davlat Yuridik Universiteti
3-bosqich talabasi
shodmonovamunisa98@gmail.com
+998940669811

Annotatsiya. Ushbu maqolada akademik, huquqshunos, olima ayol Xadicha Sulaymonova haqida so‘z boradi. Uning bolalik va talabalik yillari, huquqshunoslik kasbiga qiziqishi, ilmiy faoliyati, tashabbuskorligi, rahbarlik lavozimlari va u yashagan davr qiyinchiliklari xususida hikoya qilinadi. O‘sha davrdagi siyosiy-ijtimoiy jarayondagi ayollar imkoniyati va hozirgi yaratilgan sharoitdagi ayollarning jamiyatdagi tutgan o‘rni bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: bolalik yillari, akademik Xadicha, sevimli ustoz, rahbar, ibratli hayot, ayollar o‘rni.

Ba’zan yo‘limizda muammo uchrasa yoki yaqinlarimiz orzularimizga xayrixohlik bildirmasa, maqsad sari intilishda moddiy yoki ma’naviy ko‘mak yetishmasa maqsadimizga yetolmaydigandek bo‘lamiz, orzularimiz ortidan borishga jasorat yetishmaydigandek bo‘ladi. Bunga kim sabab insonlarmi yoki yashayotgan zamonimiz? Hech kim faqat o‘zimiz. Bizni orzularimizga erishishda davrning, muhitning hech qanday aloqasi yo‘q. Chunki hech kim muvaffaqiyatga gul-u rayhondan iborat yo‘ldan bormagan.

Xadicha opa esa ana shunday metin irodali, sabrli, maqsadi sari dadil intiluvchi ayollardan biri. Birinchi oliy ma’lumotli o‘zbek ayol huquqshunosi, birinchi ayol akademik nomi bilan mashhur bo‘lgan Xadicha Sulaymonova mamlakatimizning huquq sohasidagi eng mashhur ayollaridan biri, benazir inson va betakror olimadir. Uni goh akademik goh sevimli ustoz yoki birinchi ayol adliya vaziri sifatida eslaydilar. U muazzam sharq ayollarining mo‘jizali bir haykalidirkim, unda ilm-fan fidoisi, jonkuyar ustoz, manaviyatli va xalqchil rahbarlik xislatlari birlashib oliy ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Xadichaning huquqshunoslik kasbiga qiziqishiga o‘sha davrdagi jiddiy ijtimoiy siyosiy voqealar o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. 1926-yili O‘zbekistonda xotin-qizlarning to‘la ozodligiga erishish uchun ommaviy ravishda siyosiy kompaniya o‘tkazila boshlandi. Bu harakatga hujum nomi berildi. Bu harakatga javoban qarshi kuchlar paranjisini tashlagan, komsomolga kirgan, savodsizlikni tugatish kurslarida o‘qiydigan xotin-qizlarni haqorat qilish uchun dindorlarni va axloqsiz unsurlarni ishga solishdi. Ular

odam o‘ldirishdan ham qaytishmadi. 1928-yilning o‘zida paranjisini tashlab, ozodlik nuridan bahramand bo‘lgan 203 ayol o‘ldirilganligini aytib o‘tishning o‘zi kifoya.

Bu qирг‘инбаротда sinfiy dushmanlar ozodlikni sevgan ayollarni vahshiylarcha o‘ldirishdi.

Bu davrning qurbonlaridan biri Marg‘ilonlik Nurxon ismli qo‘shiqchi qiz edi. Uning ovozi juda shirali edi. U sahnaga chiqib qo‘shiq aytganligi uchun o‘z akasi tomonidan o‘ldirildi. Marg‘ilonda bu vahshiyona qotillik ochiq sud qilindi. Farg‘ona vodiysining ko‘p yeridan kelgan kishilar sud jarayonida qatnashishdi. Shular orasida o‘n yeti yoshli Xadicha Sulaymonova ham bore di. Uni sudlanuvchini qanday sud qilinishi qiziqtirardi. Xadicha qoralovchi Tojixonning har bir so‘zidan hayajonlanardi. U shu yerda, sud jarayonida ozodlik dushmanlarini faqat Sho‘rolar hokimiyatigina emas, balki butun xalq ham berishi mumkinligini tushunib oldi.

Xadichaning qalbida xuddi Tojixondek bo‘lish. Ustiga mato to‘shalgan uzun stolda o‘tirgan qattiqqa‘l va sabotli sudyalardek bo‘lish ishtiyoqi tug‘yon urdi. Aniqrog‘i, uning qalbida ana shu tug‘yonning dastlabki zarrasi paydo bo‘lib, asta sekin alanga olayotgan edi.

Uning bolaligi og‘ir o‘tadi. Xadicha hali yoshligida otasi inqilob sabab urushda halok bo‘ladi. Yolg‘iz onasi to‘rt farzandni yolg‘iz o‘zi ne ne qiyinchiliklar bilan voyaga yetkazadi. Sulaymon Kelginboyev 1913-yil 3-iyul jaziramasida dunyoga kelgan o‘z qizi Xadichaning yaqin keljakda o‘z mamlakatining yirik huquqshunos olimasi, Adliya vaziri, oliy sudyasi bo‘lib yetishganini ko‘rganda edi, qanchalar quvonar, faxrlanar edi.

Onasining Xadichaning yuziga kulib: “Otang hayot bo‘lganda edi, u sen bilan bizning yangi hayotimiz bilan faxrlanardi”- degan so‘zi unga doim madad va qalbining tubida unga g‘urur baxsh etib turgan.

O‘quv yillari mashaqqatli va juda qiziqarli bo‘lgan edi. Talabalarning vazifasi ilgari o‘rta osiyoda hech kim tasavvur ham etmagan yangi sovet yuridik fanini egallashdan iborat edi. U o‘qish davrida boshqalardan o‘z salohiyati bilan ajralib turardi. U o‘z ustida ko‘p ishlardi. Xadichaning kursdoshlari uning murakkab yuridik tushunchalar, masalalar, qonunlarning mag‘zini tez chaqa bilish, ayrimlarini yoddan aytib bera olishdek noyob qobiliyatiga qoyil qolishardi.

Xadicha sulaymonova nomi bugun o‘zbek huquqshunosligi tarixida yorqin o‘ringa ega.

Xadicha Sulaymonova (1916-1965) o‘zbek ayollaridan yetishib chiqqan birinchi oliy ma’lumotli yurist, akademik, yuridik fanlari doktori, professordir. 1954-yildan 1965-yilgacha Toshkent Yuridik institutiga X.S. Sulaymanovna rahbarlik qilgan. 1956-yilda u O‘zFAning haqiqiy a’zosi etib saylangan. 1956-yildan 1958-yilgacha O‘zSSR Yustitsiya vaziri, 1958-yildan 1964-yilgacha O‘zSSR Ministrlar Soveti qoshidagi yuridik komissiyaning raisi bo‘lib ishlagan. X.S. Sulaymonova 1964-yildan

O‘zSSR Oliy sudining raisi vazifasida faoliyat ko‘rsatgan. U bunday mas’uliyatli, yuqori lavozim ishonib topshirilgan birinchi o‘zbek ayol mutaxassis bo‘lgan edi.

1958 – yilda Xadicha Sulaymonova respublika adliya vaziri lavozimida ishlayotgan paytida uning say-harakatlari va tashabbusi bilan sud ekspertiza markazi tashkil etiladi. Hozirda ushbu markaz Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi nomi bilan ataladi.

Xadicha Sulaymonova nafaqat olim, rahbar balki jonkuyar ustoz ham edi. Xadicha opaning ilmiy rahabrligida yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun, 16 dissertatsiya yakunlanib, himoya qilingan. Uning shogirdlaridan Mamlakat Vosiqova, Mag‘rifat G‘aniyevna Ikromova va boshqalar edi. Adliya Vazirligi tarixida uch ayol raxbar o‘tgan ularning biri Mamlakat Vosiqova Xadicha Sulaymonovaning shogirdi edi. Bu ikki ayol bir necha yil vazirlikni boshqargan. Bularning davrida vazirlilik faoliyati yana ham rivojlandi.

Akademik X. Sulaymonovna o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda Jinoyat huquqining rivojlanishiga katta e’tibor qaratadi, shuningdek davlat qurilishi va xalq xo‘jaligini boshqarish masalalarini ham o‘rganadi. Opa 80 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop ishlarning muallifi bo‘lib, A. E. Eshonov va boshqa olimlar bilan birgalikda tayyorlangan uch to‘mlik “O‘zbekiston sovet davlati va huquqi tarixi”, “Советское право Узбекистана в период развернутого строительства коммунизма ” va boshqalar shular jumlasidandir. Xadicha Sulaymonova rahbarligida o‘zbek tilida birinchi jinoyat huquqi darsligi yayyorlandi va chop etildi.

Ko‘ryapmizki o‘sha ishslash yoki o‘qish tugul non topib yeish qiyin bo‘lgan o‘ttizinchi, qirqinchi yillarda ham o‘zbek ayollari olma bo‘lib yetishish, respublika tashkilotlariga rahbarlik darajasigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tishga imkon topolishganularning shijoati va mas’uliyatli hayot yo‘llari bugungi o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yoba chiqarishi uchun shart-sharoit yaratilgan bir davrda yashayotgan ayollarimiz uchun o‘rnak bo‘lishi kerak aslida.

Jamiyatda ayollarning rolini qanchalik ulug‘lasak shunchalik kam. Aslida muhim qarorlarni qabul qilish jarayonida ayollar ishtiroki tufayli mavjud davlatlarning ulkan natija va samaradorlikka erishayotganini ko‘pchilik yaxshi biladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xadicha Sulaymonova – huquqshunos, olma, davlat arbobi/M. Hakimov, G‘. Ahmedov, A. Saidov. – T.: O‘zbekiston, 1993.-151 b
2. R. H. Abdushukurov. Oktyabr revolyutsiyasi, o‘zbek sotsialistik millatining gullab-yashnashi va uning SSSRdagi millatlar bilan yaqinlashishi, Toshkent, O‘zSSR Davlat nashriyoti, 1962, 433-434-betlar